

**PESHKU TUMAN AXBOROT- KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT- BIBLIOGRAFIYA XIZMATI**

O'ZBEGIMNING MARD O'G'LONI

Bizning qahramonlarimiz rukni ostida Ikkinchi jahon urushi
qatnashchisi, Sovet Ittifoqi qahramoni

SHARIF ERGASHEY tavalludining 110 yilligiga (1916-1978)
bag'ishlab



SHAXS BIBLIOGRAFIYASI

PESHKU-2026

Kitobxonga esdalik Axborot – bibliografiya xizmati tomonidan tuzildi.

Tayyorladi: B. Safarova

Muharrir: M. Norova

Kirish soʻzi

Mazkur shaxs bibliografiyasi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Sovet Ittifoqi Qahramoni Sharif Ergashevning hayoti, jangovar faoliyati hamda u haqidagi nashr etilgan adabiyotlarni qamrab oladi. Bibliografiya tarixiy xotirani asrash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va mahalliy tarixni oʻrganish maqsadida tuzildi Dunyo xalqlari boshiga mislsiz qirgʻinbarot va judoliklar solgan buyuk muhoraba Ikkinchi jahon urushining alohida siymolaridan biri - "Sovet ittifoqi qahramoni" Sharif Ergashevdir.

Ushbu qoʻllanma keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan.

SHARIF ERGASHEV

oddiy askar, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Sovet Ittifoqi qahramoni (30.10.1943)

1915-yil 19-dekabrda (1916-yil 1-yanvar) Buxoro amirligining Denov qishlogʻida tugʻilgan (hozirgi Buxoro viloyati Peshku tumani). Boshlangʻich maktabda taʼlim olgan, kolxozda ishlagan.

1943-yilda Buxoro viloyati Vobkent tumani harbiy komissarligi tomonidan Armiyaga chaqirilgan. Shu yilning fevralida Markaziy frontning 65-armiyasi, 193-oʻqchilar diviziyasi 1-oʻqchilar batalyoni oʻqchisifatida frontga joʻnatilgan.

1943-yil 15-oktabrda shturm guruhi tarkibida birinchilar qatorida Ukrainaning Chernigov viloyati Repkin tumani Kamenka qishlogʻi yaqinidan Dnepr daryosini kechib oʻtgan va dushman transheyasiga bostirib kirgan. Jangda yaralanadi, lekin jangovar topshiriq bajarilmaguncha safda qoladi.

SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1943-yil 30-oktabridagi Farmoni bilan "Frontda nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashda qoʻmondonlikning jangovar topshiriqlarni namunali bajarganligi, koʻrsatgan jasorati va qahramonligi uchun", ooddiy askar Sharif Ergashev Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan.

1978-yil 5-dekabrda vafot etgan, Navgaxon MFY Denov qishlogʻi "Xoʻja chorshanba" qabristoniga dafn etilgan.

АВТОБИОГРАФИЯ.

Я, Э Р Г А Ш Е В Шариф родился 1-го января 1916 года в кишлаке Денав, Калай-Иривкорского сельсовета, Ромитанского (ранее Вабкентского) района, Бухарской области, Узбекской ССР.

В 1932 году поступил в колхоз на должности звеньевода и бригадира, где проработал до 1942 года, т.е. до призыва в Советскую Армию. В сентябре 1942 года был призван в Советскую Армию Вабкентским райвоенкоматом, Бухарской области, Уз.ССР. В Армии меня направили в полк, который находился в городе Катта-Кургане, Самаркандской области, Уз.ССР, там был сформирован узбекский полк. Находился там 3 месяца, после чего написал рапорт, чтобы меня направили в действующую Армию. Просьба была удовлетворена и меня направили в 888- стрелковый полк на Курском направлении, был на должности командира стрелкового отделения, где командовал фронтом Маршал Советского Союза Рокоссовский. Участвовал в освобождении ряда городов Украины и Белоруссии.

15 октября 1943 года 888 стрелковый полк, преследуя отходящего противника вышел к Днепру. Для обеспечения форсирования Днепра была создана специальная группа из 15 коммунистов и комсомольцев, куда входил и Я, в звании младшего сержанта.

16 октября в 5 часов утра началась переправа на лодке. Враг заметил нашу лодку и открыл по ней пулеметный и минометный огонь, в результате чего лодка получила пробойну и начала тонуть.

Во-время обстрела вышел из строя старший группы и мне пришлось командование взять на себя. В оставшихся в живых мы переправились на противоположный берег и овладели плацдармом. Недалеко от берега Днепра проходила оборона противника и мы атаковали сходу и овладели траншеей противника. В этом бою лично я уничтожил ручной пулемет, 3-х вражеских солдат и 2-х взял в плен, это дало возможность быстро и без потерь форсировать Днепр подразделениям 888 стрелкового полка.

При освобождении села был тяжело ранен и контужен, это было 10 ноября 1943 года. Это ранение заставило меня пролежать целых 3 месяца в Казанском госпитале.

После госпиталя предоставили 3-х месячный отпуск, а затем прошел переосвидетельствование и 20 -го марта 1944 года был уволен из рядов Советской Армии.

За форсирование Днепра и взятие небольшого плацдарма для наступающих подразделений 883 стрелкового полка я был представлен к высокой правительственной награде - звания ГЕРОЯ СОВЕТСКОГО СОЮЗА.

О награждении и присвоения мне Героя Советского Союза я узнал по радио ,находясь в госпитале на лечении в г.Казань. Награду получал в Кремле, куда меня вызвали , в октябре 1944 года вручал награду лично М.И.Калинин .

После армии работал в колхозе на родине, на должностях заместителя председателя в колхозе "Ленинизм" Ромитанского р-на, Бухарской области ,работал военруком ,бригадиром ,агрономом РС, и заведующим винпунктом с/совета Янги-Базар, Ромитанского района.

В настоящее время работаю на должности заместителя председателя Сельского Совета Янги-Базар ,Ромитанского района.Окончил 3-х годичный Самаркандский сельхоз техникум в 1949 году.

Член КПСС с октября 1944 года.

В настоящее время проживаю по адресу:

Узбекским ССР, Б, харьская область
Ромитанский район, с/совет Янги-
Базар, ул.Ленина . 7

ЭРГАШЕВ Шариф

5.03.1973 г.

Верно: Ромитанский райвоенком
Абузарской адм.
Маджидовичи
5.03.1973 г.
Абузаров



UNVONLARI



"SOVET ITTIFOQI QAHRAMONI" UNVONI



"LENIN" ORDENI



ORDENNING LENTASI

НАГРАДНОЙ ЛИСТ

ЭРГАШЕВ Шарип

1. Фамилия, имя и отчество _____
2. Звание **красноармеец** 3. Должность, часть **Стрелок I стр.**
батальона 883 стр.полка, 193 Краснознаменной стр. дивизии
- Представляется к **званию ГЕРОЯ СОВЕТСКОГО СОЮЗА**
4. Год рождения **1916** 5. Национальность **узбек** 6. Партийность. **канд.ВКП/б/**
7. Участие в гражданской войне, последующих боевых действиях во защите СССР и отечественной войне (где, когда) **На Центральном фронте с 27.2.43 г.**
8. Имеет ли ранения и контузии в отечественной войне **ранен 16.10.43 г.**
9. С какого времени в Красной Армии **с октября 1943 г.** 10. Каким РВК призван **Вабкентский РВК, Бухарской области**
11. Чем раньше награжден (за какие отличия) **не награждался**

12. Постоянный домашний адрес представляемого к награждению и адрес его семьи _____
Бухарская область, Вабкентский район, Кехокжанский с/с, колхоз Якшуя.
Отец САТИЛКОВ Елган

1. Краткое конкретное изложение личного боевого подвига или заслуг.

15.10.43 г., участвуя охотником итурмовой группы по форсированию р.Днепр, переправившись один из первых через реку, увлекая за собой группу бойцов, сходу ворвался в немецкий окоп, забросав противника гранатами, уничтожив при этом 3-х немцев и обратив остальных в бегстве. Продолжая преследование врага, первым ворвался во вторую линию обороны противника, сильно поднял своим героическим примером дух своих товарищей-новичков и обеспечил тем самым успешность наступательных операций своего взвода.

**КОМАНДИР 883 СТР.ПОЛКА
 ПОДПОЛКОВНИК СМИРНОВ**

20 октября 1943 г.

_____ 19 _____ г. Командир (начальник) _____ [подпись]

Достоин присвоения звания Героя Советского Союза.

КОМАНДИР 193 КСД
полковник ФРОЛЕНКОВ

21 октября 1943 г.

Достоин присвоения звания Героя Советского Союза.

КОМАНДИР 27 СТР.КОРПУСА
гв. генерал-майор ЧЕРОКМАНОВ

21 октября 1943 г.

Достоин присвоения звания Героя Советского Союза.

КОМАНДУЮЩИЙ 65 АРМИЕЙ ЧЛЕН ВОЕННОГО СОВЕТА
генерал-лейтенант БАТОВ генерал-майор РАДЕЦКИЙ

23 октября 1943 г.

Достоин присвоения звания Героя Советского Союза.

КОМАНДУЮЩИЙ ВОЙСКАМИ БФ ЧЛЕН ВОЕННОГО СОВЕТА БФ
генерал армии РОКОССОВСКИЙ генерал-лейтенант ТЕЛЕГИН

30 октября 1943 г.

Присвоено звание Героя Советского Союза с вручением ордена Ленина и медали "Золотая Звезда". Указ Президиума Верховного Совета СССР от 30 октября 1943 г.

Архив МО СССР
Ф.33, оп. 798756, д. 57, л. 7.
Отп. I экз.
Отп. Л.М.

9.9.69 г.



Dunyo xalqlari boshiga mislsiz qirg'inbarot va judoliklar solgan buyuk muhoraba Ikkinchi jahon urushining alohida siymolaridan biri - "Sovet ittifoqi qahramoni" Sharif Ergashev 1916 yil 1 yanvarda o'sha paytdagi Vobkent, hozirda Peshko' tumaniga tegishli "Qalaymirishkor" mahalla fuqarolar yig'inining Denov qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan. Otasi Ergash Satliqov hamda onasi Ro'zigul Jo'rayeva kolxozda oddiy ishchi-mehnatkash edilar. Sharif Ergashev qishloqda o'rta maktabni tugatgach, 1932 yildan 1941 yilga qadar kolxoz ishchisi, zvenovoy, brigadir bo'lib ishlagan. 1941 yil iyun oyida fashistlar Germaniyasi sovet ittifoqiga qarshi urush boshlagach, Sharif ham el farzandi sifatida Vatan mudofaasiga otlandi. Bir necha oylik serjantlar maktabidagi o'qish va malaka oshirishlardan so'ng 1943 yil fevralidan boshlab navqiron yigit Rossiyaning Orlovskiy shahridagi markaziy front armiyasining 193-o'qchi diviziyasi polkida vzvod komandiri vazifasida harbiy xizmatga-jangga kirdi.

Sharif Ergashev dastlab Oryol shahri bo'sag'asidagi shiddatli janglarda ishtirok etib urushni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Shu yerdagi janglardan birida og'ir yaralanib, davolanish uchun gospitalga yuborildi. Oradan bir oy o'tar- o'tmas jasur o'zbek yigiti, to'liq sog'aymasdan turib urushga, ya'ni o'z polkiga qaytmoqchi ekanligini bildiradi. Rad javobini olgach esa kunlardan birida gospitaldan qochadi. Frontga qaytayotgan askarlar orasida yashirinib, o'z harbiy qismi tomon yo'l oladi. Ammo bir necha kunlik yo'l azobi, ochlik-tashnaliklardan keyin "Maxsus kuzatuv otryadi" qo'lga tushadi. U frontdan qochgan "dezertir" sifatida hibsga olinib, qiynoqqa solinadi. Ko'p urinishlardan so'ng Sharif o'zi xizmat qilayotgan polkka yetib boradi. Lekin uni bu yerda shumxabar kutardi. Harbiy qism jangchilari dushmanning qattiq zarbasiga uchrab, batamom qirilib bitgandi. Baxtli tasodif tufayli polk komandiri omon qolgan edi, uning ko'magi bilan yangi kuchlar safiga borib qo'shiladi. Sharif Ergashev xizmat qilayotgan harbiy qism 1943

yil 15 oktyabrda bosh qo'mondonlik tomonidan "Dnepr" daryosini kechib o'tish va narigi qirg'oqda joylashgan qishloqdagi aholini qutqarish haqida buyruq oladi. Sharif Ergashev boshchiligidagi tezkor guruh jangchilari birinchilardan bo'lib, daryoni kechib o'tishga o'tlanadi. Jangchilar rezina qayiqlarda daryodan kechib o'ta boshlaydilar. Daryoning o'rtasiga borganlarida nemis gazandalari ularni payqab qolib o'qqa tutadi. O'q yomg'iri rezina qayiqni ilma teshib qiladi. Bir necha askar shu yerda jon beradi. Ortga chekingan diviziya askarlari qo'lbola qayiq yasab, yarim tunda bir amallab daryodan kechib o'tadilar. Askarlar katta talofatlar evaziga dushman qarorgohini ishg'ol etishga muvaffaq bo'ldilar.



Sharif va uning safdoshlari yong'in ostida qolgan qishloqqa kirib borganlarida nemis gazandalari ularni to'xtovsiz o'q yomg'iri bilan qarshi oladi. Okoplarda berkingan nemis gazandalari pulemyotlardan mahorat bilan foydalanib, biznikilarni tutdai to'ka boshlaydi. Shunda Sharif Ergashev chap qo'lidan yaralanganiga qaramay, dushman tomon dadil emaklaydi. Pistirmadagi dushmanni yakson qilib, fashistlardan bir nechtasini asir olishga ham muvaffaq bo'ladi. O'zbek yigitining ana shu harakati tufayli katta bir qishloq gazandalardan ozod etiladi. Ammo murosasiz jangda Sharifning o'zi ham bomba ostida qolib ketadi. Shinelini bir uchi tuproqdan tashqarida qolgan yurtdoshimizni undan orqada kelayotgan quroldoshi qutqarib qolgan. Zabardast sherigini tuproq ostidan tortib olib, Kazan shahridagi gospitalga jo'natgan.

Sharif gospitalda yetti kun behush yotib, nihoyat o'ziga kelganida o'zini qutqarib qolgan quroldoshi bilan ko'rishadi. Afsuski, u soldat ham bir oyog'idan og'ir yaralanib, gospitalga tushgandi. Shu yerda ular "Dnepr" daryosi kechib o'tilgan va rus qishlog'i fashistlardan tozalangan qonli jangda mardonavor qatnashgan barcha jangchilarga "Sovet Ittifoqi qahramoni" degan oliy unvon berilganligi to'g'risidaga xabarni radiodan eshitib bilishadi.

Bir necha oylik davolanishlardan so'ng Sharif Ergashev ona yurtiga qaytadi. Qishloqdoshlari unga "Sovet ittifoqi qahramoni" unvoni berilgani to'g'risidagi maqola chop etilgan gazetani ko'rsatib, olqishlashadi. Endi qahramon yuksak unvonni qabul qilib olish uchun Moskvaga yetib borishi haqidagi telegrammani oladi. 1944 yil 29 avgust kuni Sharif Ergashev ko'ksiga Moskva shahrining Kreml maydonida bir necha orden va medallar bilan birga yuksak sharaf "Oltin yulduz" medali taqiladi.



Mash'um urushdan keyingi tiklanish yillarida Sharif Ergashev o'z ona yurtida, tuman ijroiya qo'mitasida qator mas'uliyatli va rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritdi. Bor kuch-g'ayratini yurt taraqqiyotiga safarbar etdi. Harbiy bo'lim boshlig'i, keyinchalik "Qo'ng'iro't" qishloq sovet kengashiga qarashli "Voroshilov" nomli kolxozda raislik qildi. Samarqanddagi rahbar kadrlar tayyorlash maktabida o'qib kelgach, Peshko' tumanidagi 11-sonli MTS da bosh agronom, "Yangibozor" vino punkti. Romitan tumani o'simliklarni himoya qilish bo'limi, shuningdek, "Yangibozor" qishloq sovet kengashi raisi lavozimlarida ishlab, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni a'lo darajada uddaladi.

Janggohlarda kechgan mashaqqatli yillar asorati "Sovet ittifoqi qahramoni" Sharif Ergashevning sog'ligiga ta'sirini o'tkazmay qolmagandi. U 1978 yil 5 dekabr kuni tabarruk 63 yoshida hayotdan ko'z yumdi.

*Bobojonim, xok ostidan ko'taring boshingizni,
Uloqtirib tashlang endi, oq marmar toshingizni.
Netay so'nggi so'zingizni tinglolmadim, dilxunman,
Koshki edi ruhingizni shod etolsam bugun man.*

Xulosa

O'zbek farzandi, mard va jasur o'g'lon Sharif Ergashev haqida "Oltin yulduz kovalerlari", "Ellik ikki bahodir", "Jasoratnoma", "E'zoz", "Peshko' tarixi" nomli kitoblarda alohida sahifalar ajratilgan. Maqola va ocherklar yozilgan. Vatandoshimiz ko'rsatgan jasorat yosh avlodga ibrat-namuna sifatida tildan tilga, dillardan dillarga ko'chib, barhayot siymo sifatida qalblarimizda mangu yashaydi.

Adabiyotlar

1. Ahmedov, B. O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi yillarida. — Toshkent: Fan, 1975. — 320 b.
2. Ikkinchi jahon urushi qahramonlari. — Toshkent: O'zbekiston, 1980. — 260 b.
3. Vatan uchun jang qilganlar. — Toshkent: O'zbekiston, 1985. — 240 b.
4. O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida. — Toshkent: Fan, 1985. — 350 b.
5. Jasorat namunalari. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. — 220 b.
6. Front orti mehnatkashlari. — Toshkent: Fan, 1987. — 230 b.
7. Rasulov, A. O'zbekiston qahramonlari haqida hikoyalar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1988. — 200 b.
8. Vatan qahramonlari. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1989. — 260 b.
9. Karimov, N. Ikkinchi jahon urushi tarixidan lavhalar. — Toshkent: O'qituvchi, 1990. — 210 b.
10. Ikkinchi jahon urushi tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1992. — 300 b.
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi: 12 jildli. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. — Toshkent, 2002.
13. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. — Toshkent, 2003.
14. Xotira kitobi. — Toshkent: Sharq, 1995.
15. Xotira kitobi. — Toshkent: Sharq, 1996.
16. Xotira kitobi. — Toshkent: Sharq, 1997.
17. Xotira kitobi. — Toshkent: Sharq, 1998.
18. Xotira kitobi. — Toshkent: Sharq, 1999.
19. "Xotira va qadrlash kuni" // Xalq so'zi. — 9 may 2020.
20. "Urush qatnashchilari xotirasi abadiy" // Yangi O'zbekiston. — 8 may 2021.
21. "Vatan himoyachilari jasorati" // O'zbekiston ovozi. — 9 may 2019.
22. "Faxriylar bilan uchrashuv" // Xalq so'zi. — 8 may 2016.

23. “Xotira – muqaddas qadriyat” // Buxoro haqiqati. — 9 may 2018.
24. “Ikkinchi jahon urushi saboqlari” // Fan va turmush. — 2013. — №5.
25. “Urush saboqlari va bugungi tinchlik” // O‘zbekiston tarixi. — 2017. — №2.
26. “Jasorat va fidoyilik timsoli” // Yosh kuch. — 2019. — №5.
27. “Urush faxriylari haqida xotiralar” // Fan va turmush. — 2015. — №4.
28. Internet manbaalari asosida tayyorlandi.

AXBOROT-BIBLIOGRAFIYA XIZMATI